

Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 2 761,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Nukus shahri (616,4 mlrd so'm), To'rtko'l tumani (243,4 mlrd so'm) va Ellikqal'a tumanida (152,9 mlrd so'm) qurilish ishlaringin yuqori hajmi qayd etildi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 761,6	106,1
Nukus shahri	616,4	103,3
<i>tumanlar</i>		
Amudaryo	121,8	108,2
Beruniy	132,2	106,7
Bo'zotov	33,0	102,1
Qorao'zak	32,8	107,0
Kegeyli	38,1	101,4
Qo'ng'irot	106,2	110,4
Qonliko'l	34,9	115,8
Mo'ynoq	80,3	85,4
Nukus	96,2	107,1
Taxiatosh	109,9	110,8
Taxtako'pir	42,5	138,4
To'rtko'l	243,4	103,2
Xo'jayli	69,4	101,6
Chimboy	73,9	105,6
Shumanay	26,0	145,2
Ellikqal'a	152,9	113,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

**II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 72,7% i yoki **2 008,9** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **145,9** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 7,3 %;*

Kichik korxona va mikrofirmalar – **1 105,5** mlrd so'm *hamda ulushi – 55,0 %;*


Norasmiy sektor – **757,5** mlrd so'm *hamda ulushi – 37,7 %.*

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlaring iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 65,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 95,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 26,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 125,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 8,8 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 173,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % ga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga kamayib 52,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ga ko'payib, 43,1 % ni tashkil etdi.


Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 19,3 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga kamayib 80,7 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlari qurilishining hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga kamaydi va 4,9 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,1 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-aprel oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 231,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,1 % ga ko'payib, 8,4 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,6 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ni tashkil etgan holda 1755,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Resp.	231,9	1 755,4	774,3	107,5	108,2	101,3
Nukus shahri	3,8	589,9	22,7	21,8	105,7	106,1
<i>tumanlar</i>						
Amudaryo	2,1	76,0	43,7	35,6	111,0	114,5
Beruniy	3,1	107,9	21,2	91,4	106,8	108,8
Bo'zotov	0,6	27,5	5,0	105,5	107,5	79,4
Qorao'zak	4,8	21,7	6,3	177,8	100,7	98,4
Kegeyli	1,2	29,7	7,2	11,0	141,3	131,4
Qo'ng'irot	40,5	56,4	9,3	248,5	90,1	53,4
Qonliko'l	2,3	10,1	22,5	105,1	120,3	115,1
Mo'ynoq	18,1	54,0	8,2	39,7	135,2	96,5
Nukus	1,5	64,6	30,1	57,4	111,9	102,4
Taxiatosh	27,1	69,1	13,7	363,3	88,3	101,5
Taxtako'pir	12,4	23,3	6,8	1 156,6	103,9	94,2
To'rtko'l	13,6	182,1	47,7	46,2	114,8	98,5
Xo'jayli	0,8	47,1	21,5	-	100,8	99,6
Chimboy	1,4	25,6	46,9	40,0	131,6	99,4
Shumanay	2,9	10,0	13,1	193,9	285,9	101,0
Ellikqal'a	18,0	115,2	19,7	129,9	107,9	103,1

Norasmiy sektorda qurilish ishlaringin ulushi 28,0 % ni yoki 774,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ni tashkil etdi. Shundan 756,9 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 0,6 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 16,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitarni texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quydagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
D. Abdullaeva

Manzil:
230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-75-91
